

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi  
kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida  
NIZOM**

**1-bob.  
Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining 03.01.2017 yildagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2022 yildagi PQ-81-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi 829-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “O‘zavtosanoat” AJda (keyingi o‘rinlarda - “Jamiyat”) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar — fuqarolar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining yoxud davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi va “O‘zavtosanoat” AJ hamda uning tizim korxonalarida ishchi-xodimlari;

korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish — Jamiyat va uning tizim korxonalarida tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud Jamiyat va uning tizim korxonalarida korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq qidiruv e‘lon qilingan shaxslarni topishda yordam ko‘rsatish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashish — korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo‘lgan dalillar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda bevosita ko‘maklashish;

korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar — O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 61<sup>1</sup>, 193<sup>1</sup> va 193<sup>2</sup> -moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korrupsiyaga oid jinoyatlar — O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi “g” bandi, 168-moddasining uchinchi qismi “v” bandi, 192<sup>9</sup> va 192<sup>10</sup>, 205, 209 — 214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bilan bog‘liq tezkor-qidiruv tadbirlarini hamda protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi organlar (keyingi o‘rinlarda — korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar) — O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

3. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirishning (keyingi o‘rinlarda — rag‘batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

Jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta‘minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

ishchi-xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo‘shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

4. Rag‘batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta‘minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

5. Ushbu Nizom talablari quyidagi shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

mansabdor shaxslar, shu jumladan, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga maxfiylik asosida ko‘maklashuvchi shaxslar;

Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida kelib tushgan xabarlarni ko‘rib chiqish va xizmat tekshiruvlarni o‘tkazishga vakolatlangan xodimlar;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida o‘ttiz sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilgan yoki korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan shaxslar.

6. Rag‘batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘a shaklida belgilanadi.

## **2-bob.**

### **Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish asoslari va turlari**

7. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar quyidagi asoslardan biri mavjud bo‘lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi:

fuqarolar yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan o‘zlariga nisbatan pora talab qilgan shaxs haqida yoki o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

Jamiyat xodimi o‘ziga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida yoxud o‘ziga ma‘lum bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamentiga (Departament xodimlari esa bevosita o‘z rahbariga) bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi;

Jamiyatda korrupsiyaga oid jinoyatni sodir etganligi uchun qidiruvda bo‘lgan shaxs to‘g‘risida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga berilgan xabar asosida qidiruvdagi shaxs ushlanishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari bundan mustasno.

8. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar Jamiyat mablag‘lari hisobidan quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi:

a) korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun — bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida;

b) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravarigacha bo'lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida;

og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida;

o'ta og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida;

v) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo'lsa:

ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat uchun-bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida;

uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravari miqdorida;

og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida;

o'ta og'ir jinoyat uchun — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdorida;

g) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ko'p bo'lsa, quyidagi foiz hisobida hisoblanadi:

ancha miqdor uchun — pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining o'n besh foizi miqdorida;

ko'p yoki juda ko'p miqdor uchun — pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatining o'n foizi miqdorida.

Bunda pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk qiymatini foizlarda hisoblashda qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdorning eng kam miqdoridan kelib chiqiladi;

d) qidiruvda bo'lgan shaxsning yashiringan joyi haqida xabar berganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari, ikki yoki undan ortiq qidiruvda bo'lgan shaxslarning yashiringan joyi haqida bir vaqtda xabar berganligi uchun esa — bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida.

9. Korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo'lgan dalillar haqida Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamentiga xabar berganlik yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda bevosita ko'maklashganlik uchun shaxs tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a shaklida rag'batlantirish tarzida taqdirlanadi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarining yoki Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida kelib tushgan xabarlarni ko'rib chiqish va xizmat tekshiruvlarni o'tkazishga mas'ul xodimlari bundan mustasno.

Esdalik sovg'a qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan oshmasligi lozim.

10. Quyidagi holatlarda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxs:

ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida xabar berganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining to'rt baravari;

har xil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligidan kelib chiqib og'irroq tasnifi bo'yicha bir marta;

bir xil tasnifdagi ikki va undan ortiq korrupsiyaga oid jinoyatlar haqida xabar berganlik uchun bir marta;

korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat haqida yoxud qidiruvdagi shaxs to'g'risida ikki yoki undan ortiq shaxsning bergan xabari uchun mazkur Nizomning 8 va 10 bandlarida ko'rsatilgan pul mukofoti miqdorining teng ulushlarida rag'batlantiriladi.

11. Shaxs korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkin.

12. Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so'ng rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda;

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 84-moddasi birinchi qismining 1 — 3-bandlari, uchinchi qismi hamda beshinchi qismining 1-bandi asosida ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror prokuror tomonidan tasdiqlanganda yoki sudning ajrimi qonuniy kuchga kirganda;

qidiruvdagi shaxsga nisbatan qidiruvning bekor qilinganligi to'g'risida prokurorning, surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sudning ajrimi qabul qilinganda.

13. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar Jamiyat yoki uning tizim korxonalarini o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

### **3-bob.**

#### **Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi**

14. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasi "O'zavtosanoat" AJ huzurida tuziladigan maxsus komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi.

Maxsus komissiya nizomi Boshqaruv raisi buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

15. Maxsus komissiyaning tarkibi, faoliyat yuritish tartibi, huquq va majburiyatlari Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish maxsus komissiya nizomida belgilanadi.

16. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish to'g'risidagi xizmat xatiga rag'batlantirish uchun asos bo'luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

ro'yxatdan o'tgan ariza nusxasi yoki og'zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma'lumotlar;

sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki ayblov hukmi nusxasi;

qidiruvni bekor qilish haqida, shuningdek, ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish to'g'risida chiqarilgan ajrim yoki qaror nusxasi;

shaxsni tasdiqlovchi hujjat nusxasi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarning shaxsiy hisobvarag'i bo'lgan bank rekvizitlari.

17. Departamentning korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish

masalasi ko'rib chiqish to'g'risidagi xizmat xati va unga ilova qilingan asoslovchi hujjatlar rag'batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab uch ish kuni ichida maxsus komissiyaga taqdim etiladi.

18. Maxsus komissiya tomonidan rag'batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning to'liqliligi, asosliligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinganligi ko'rib chiqiladi.

19. Rag'batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to'liq emasligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinmaganligi aniqlangan taqdirda, ikki ish kuni ichida qaytariladi.

Qaytarilish uchun asos bo'lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Nizom talablari asosida rag'batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin.

20. Rag'batlantirish bo'yicha maxsus komissiya tomonidan chiqarilgan qaror uch ish kuni ichida xizmat xati Jamiyatning tegishli bo'limiga ijro uchun yuboriladi.

21. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarning ta'qib qilinmasligi "Aloqa kanallari orqali qoidabuzarliklar to'g'risida "O'zavtosanoat" Aksiyadorlik jamiyatiga kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti"da belgilangan kafolatlar asosida amalga oshiriladi.

22. Maxsus komissiyaning a'zolari komissiya qarori qonuniyligi, xolisligi hamda shaxslarning shaxsiga oid ma'lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

23. Jamiyat maxsus komissiyaning qarori asosida bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg'asi bilan taqdirlash haqida qaror chiqaradi.

Bir martalik pul mukofoti xarajatlar smetasiga o'zgartirish kiritilgandan so'ng o'n ish kuni ichida shaxslarning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazib beriladi, esdalik sovg'asi esa qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg'a qilinadigan buyum xarid qilingandan so'ng besh ish kuni ichida topshiriladi.

24. Tashakkurnoma shaklida rag'batlantirish masalasi bevosita Boshqaruv raisi tomonidan ko'rib chiqiladi.

#### **4-bob.**

#### **Yakuniy qoidalar**

25. Rag'batlantirilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarning hisobi maxsus komissiyaga taqdim etilgan ma'lumotlar asosida Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti tomonidan yuritiladi.

26. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ular haqidagi ma'lumotlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

27. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

28. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

29. Ushbu Nizom talablari buzilganligida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.